SAMARQAND QISHLOQLARIDA "OILAVIY MEHMON UYLARI" (GUEST HOUSES) VA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI: ISHCHI KUCHI VA KAPITAL NAZARIY TAHLILI.....	781
Ozoda Pardayeva	
YASHIL INNOVATSIYALARNING O'ZBEKISTONDAGI IQTISODIY ROLI	787
Mamatsoliyev Muhammadjon	
SUV TANQISLIGI SHAROITIDA SOHANI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA BOSHQARISH (XORIJ TAJRIBASI).....	793
Akbarova Shaxnoza Yakub qizi	
IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA ASALARICHILIK TARMOG'INI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	797
Farmanov Jonibek Ziyadullayevich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA NEFT-GAZ SANOATI KORXONALARIDA AXBOROT ALMASHINUVINI TAKOMILLASHTIRISH "Muborak gazni qayta ishlash zavodi MCHJ misolida"	802
Abdullayev Munis	
TIJORAT BANKLARIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI KREDITLASHNING IQTISODIY MOHIYATI VA UNING MILLIY IQTISODIYOT RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI	809
Nurmuxammedov Abdijabbar Yunusovich	
AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI (AKT) INFRATUZILMASIDA AKTIVLARNI BOSHQARISHDA ISO/IEC 55000 STANDARTINI QO'LLASH	816
Suleymanov Farrux Raximjon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA KICHIK VA O'RTA BIZNESNI KREDITLASHNI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI.....	822
Karimova Aziza Maxomadrizoyevna	
Abduraxmonov Faridun Firo'z o'g'li	
BANKLARNING MOLIVAVIY BARQARORLIGINI XALQARO USULLAR VA MEZONLAR ASOSIDA BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	827
G'aybulloyev Suxrob Odil o'g'li	



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARINING AKTIVLARINI BOSHQARISH BILAN BOG'LIQ AMALIY VA USLUBIY MUAMMOLAR	834
Baxriddinov Sharofiddin	
XIZMAT KO'RSATISH TIZIMINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA XALQARO MARKETING STRATEGIYALARINING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI	842
Otajanov Umid Abdullayevich	
Isakova Naima Ikromjonovna	
РАЗВИТИЕ РЫНКА ЗЕЛЁНЫХ ОБЛИГАЦИЙ И АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ ESG-ФИНАНСИРОВАНИЯ	848
И. Р. Бердикулова	
INSURTECH PLATFORMALARI ASOSIDA SUG'URTA XIZMATLARINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISH VA MOLIYAVIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH YO'LLARI	852
Xakimzoda Maftuna Yusuf qizi	
ИННОВАЦИОННЫЕ ИНСТРУМЕНТЫ ФИНАНСИРОВАНИЯ МЕЖДУНАРОДНОЙ ТОРГОВЛИ В ЗАРУБЕЖНОЙ ПРАКТИКЕ: БЛОКЧЕЙН, ФИНТЕХ И ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ	857
Ражаббаева Махфуза Султанбой кизи	
Абдуллаев Анвар Фарходович	
OILAVIY KORXONALAR FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA BANKLARNING O'RNI	861
Fayziyev X.	
Toshtemirov M.	
MAHSULOT TANNARXINI KALKULYATSIYA QILISHNING ZAMONAVIY USULLARINI JORIY ETISH SAMARADORLIGI	866
Almardanov Muxamadi Ibragimovich	
Bolibekov Baxtiyor Achilovich	
Safarov Javohir Ismoilovich	
MOLIYAVIY BOSHQARUV TIZIMIDA MAVJUD MUAMMOLAR VA CHEKLOVLAR	872
Begalov Sherzod Maxsutaliyevich	
TA'LIM JARAYONIDA TEXNOLOGIK YONDASHUVNING ZARURIYATI	876
A'zamova Saxovat	
O'ZBEKISTONDA "QISHLOQ XO'JALIGI-4.0" KONSEPSIYASINI JORIY ETISH YO'LLARI, MUAMMOLARI VA STRATEGIK ISTIQBOLLARI	879
Matrasulov Baxodir Erbutayevich	
GLOBAL COMPETITIVE POSITIONING OF UZBEKISTAN'S TOURISM SECTOR: A DISTANCE-TO-FRONTIER DIAGNOSIS ACROSS THIRTEEN DEVELOPMENT PILLARS	886
B. Sobirov	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA MOLIYAVIY RESURLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI	893
Tangriyeva Farida Abdulkarimovna	
МОЛИЯ ТИЗИМИДА ДАВЛАТ МОЛИЯВИЙ НАЗОРАТИНИНГ МЕТОДОЛОГИК МУАММОЛАРИ	897
Ҳакимов Нодир Назарович	
MOLIYA TIZIMIDA DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATINING METODOLOGIK MUAMMOLARI	902
Hakimov Nodir Nazarovich	
FISKAL VA MONETAR SIYOSATNING INFLYATSIYA VA DAVLAT QARZIGA TA'SIR MECHANIZMLARI	907
Narkuziyev Anvar Rustamovich	



FISKAL VA MONETAR SIYOSATNING INFLYATSIYA VA DAVLAT QARZIGA TA'SIR MEXANIZMLARI

Narkuziyev Anvar Rustamovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi,

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Iqtisodiyot nazariyasi" kafedrası dotsenti

E-mail: anvar.norquziyev824@gmail.com

ORCID: 0009-0008-4211-8548

Annotatsiya. Mazkur maqolada davlat qarzi va inflyatsiya o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning nazariy asoslari hamda ularning makroiqtisodiy barqarorlikka ta'siri O'zbekiston misolida tahlil qilinadi. Tadqiqotda keynsiy, monetar va fiskal nazariyalar doirasida davlat qarzining pul massasi, byudjet taqchilligi va narxlar darajasi bilan bog'liqligi yoritilgan. Shuningdek, davlat qarzini monetizatsiya qilish, fiskal dominanta va qarz yukining inflyatsion bosimga ta'siri masalalari ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: davlat qarzi, inflyatsiya, fiskal siyosat, monetar siyosat, byudjet taqchilligi, pul massasi, fiskal dominanta, makroiqtisodiy barqarorlik, O'zbekiston iqtisodiyoti.

Abstract. This article analyzes the theoretical foundations of the relationship between public debt and inflation and their impact on macroeconomic stability in the case of Uzbekistan. The study examines the relationship between public debt and money supply, budget deficit, and price level within the framework of Keynesian, monetary, and fiscal theories. It also scientifically substantiates the issues of public debt monetization, fiscal dominance, and the impact of debt burden on inflationary pressures.

Keywords: public debt, inflation, fiscal policy, monetary policy, budget deficit, money supply, fiscal dominance, macroeconomic stability, economy of Uzbekistan.

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические основы взаимосвязи государственного долга и инфляции, а также их влияние на макроэкономическую стабильность в случае Узбекистана. Исследование рассматривает взаимосвязь государственного долга и денежной массы, бюджетного дефицита и уровня цен в рамках кейнсианской, монетарной и фискальной теорий. Также научно обосновываются вопросы монетизации государственного долга, фискального доминирования и влияния долговой нагрузки на инфляционное давление.

Ключевые слова: государственный долг, инфляция, фискальная политика, монетарная политика, дефицит бюджета, денежная масса, фискальное доминирование, макроэкономическая стабильность, экономика Узбекистана.

KIRISH

O'zbekiston iqtisodiyotida so'nggi yillarda faol fiskal siyosat va keng ko'lamli investitsion dasturlar amalga oshirilishi natijasida davlat qarzi hajmi sezilarli darajada oshdi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2018-yilda davlat qarzining YAIMga nisbati qariyb 20 foiz atrofida bo'lgan bo'lsa, 2023-yil yakuniga kelib ushbu ko'rsatkich 35 foizga yaqinlashdi. Davlat qarzining asosiy qismini tashqi qarz tashkil etib, u xalqaro moliya institutlari va xorijiy investorlar mablag'lari hisobidan shakllangan. Inflyatsiya darajasi ham mazkur davrda o'zgaruvchan xarakterga ega bo'ldi. Xususan, 2018–2020-yillarda inflyatsiya darajasi o'rtacha 12–15 foiz atrofida shakllangan bo'lsa, 2022–2023-yillarda qat'iy pul-kredit siyosati natijasida inflyatsiya bosqichma-bosqich pasayish tendensiyasini namoyon etdi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan inflyatsion targetlash rejimiga o'tish narxlar barqarorligini ta'minlashda muhim qadam bo'ldi.

Davlat qarzi va inflyatsiya o'rtasidagi bog'liqlik bir necha kanallar orqali namoyon bo'ladi: byudjet taqchilligini monetizatsiya qilish, pul massasi kengayishi, foiz stavkalari dinamikasi va valyuta kursining o'zgarishi orqali. Agar davlat qarzi pul emissiyasi hisobidan moliyalashtirilsa, bu inflyatsion bosimni kuchaytirishi mumkin. Aksincha, qarz mablag'lari samarali investitsiyalarga yo'naltirilsa va fiskal intizom ta'minlansa, inflyatsion xatarlar cheklanishi mumkin.



Ushbu maqolada davlat qarzi va inflyatsiya o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik nazariy va empirik yondashuvlar asosida o'rganildi. Tadqiqot metodologiyasi quyidagi usullarga tayandi. Birinchidan, nazariy tahlil usuli qo'llanilib, klassik, keynschilik va monetarizm maktablarining qarashlari solishtirildi. Davlat qarzining byudjet taqchilligi, pul emissiyasi va yalpi talab orqali inflyatsiyaga ta'siri mexanizmlari tizimli ravishda tahlil qilindi. Ikkinchidan, taqqoslash va mantiqiy umumlashtirish usuli yordamida davlat qarzining ichki va tashqi shakllari hamda ularning narxlar darajasiga ta'siri o'rganildi. Uchinchidan, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish usuli asosida (so'nggi yillardagi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar: davlat qarzi hajmi, inflyatsiya darajasi, byudjet taqchilligi) o'zaro bog'liqlik baholandi. To'rtinchidan, korrelatsion tahlil elementlari yordamida davlat qarzi o'sishi va inflyatsiya sur'atlari o'rtasidagi bog'liqlik darajasi aniqlashtirildi.

Davlat qarzi va inflyatsiya o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni to'liq anglash uchun nazariy yondashuvlar bilan amaliy dinamikani o'zaro integratsiya qilgan holda tahlil qilish zarur. 2024-yilda O'zbekistonning davlat qarzi qariyb 40,2 mlrd AQSh dollarini tashkil etdi va yil davomida oshish kuzatildi. Davlat qarzining YAIMga nisbati taxminan 35 % atrofida bo'ldi va oldingi yilga nisbatan o'sish qayd etildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Fiskal va monetar siyosatning inflyatsiya hamda davlat qarziga ta'siri iqtisodiyot nazariyasida eng ko'p tadqiq qilingan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu masalalar bo'yicha klassik va zamonaviy iqtisodiy maktablar turli yondashuvlarni ilgari surgan bo'lib, ularning ilmiy qarashlari bugungi kunda ham davlatlarning makroiqtisodiy siyosatini shakllantirishda muhim nazariy asos vazifasini o'tamoqda.

Makroiqtisodiy nazariyaning asoschilaridan biri bo'lgan John Maynard Keynes (1936) o'zining The General Theory of Employment, Interest and Money asarida iqtisodiy inqiroz davrlarida fiskal siyosatning faollashtirilishini asoslab berdi. Muallifning fikriga ko'ra, davlat xarajatlarning ko'payishi yalpi talabni rag'batlantirib, iqtisodiy o'sishni tezlashtiradi va ishsizlikni kamaytiradi. Biroq iqtisodiyot to'liq bandlik darajasiga yaqinlashgan sharoitda ortiqcha davlat xarajatlari inflyatsion bosimni kuchaytirishi mumkin. Keynes davlat qarzining oshishini qisqa muddatda iqtisodiy faollikni tiklash vositasi sifatida baholagan.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hisobotlarida davlat qarzining dinamikasi, fiskal qoidalar, byudjet taqchilligi va qarz yukining makroiqtisodiy barqarorlikka ta'siri muntazam yoritib boriladi. So'nggi yillarda davlat qarzini boshqarish strategiyasi doirasida qarzning xavfsiz darajasini saqlash va fiskal barqarorlikni mustahkamlash ustuvor vazifa sifatida belgilanmoqda.

So'nggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, fiskal va monetar siyosat alohida emas, balki o'zaro muvofiqlashtirilgan holda amalga oshirilgandagina inflyatsiyani nazorat qilish va davlat qarzini maqbul darajada ushlab turish mumkin. Davlat xarajatlarning samaradorligi, soliqa tortish tizimining barqarorligi, markaziy bank mustaqilligi hamda davlat qarzini oqilona boshqarish makroiqtisodiy barqarorlikning asosiy omillari hisoblanadi. Shu sababli zamonaviy iqtisodiy siyosatda fiskal va monetar choralar o'zaro uyg'unlashtirilgan holda qo'llanilishi iqtisodiy o'sish, narxlar barqarorligi va davlat moliyasining barqarorligini ta'minlashning muhim sharti sifatida qoraladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bizga ma'lumki, iqtisodiy adabiyotlarda inflyatsiyani o'lchashning ikki asosiy yondashuvi mavjud: to'g'ridan-to'g'ri o'lchov usullari va bilvosita (model asosidagi) baholash usullari. To'g'ridan-to'g'ri usullar orasida iste'mol narxlar indeksi (INI yoki CPI), ishlab chiqaruvchi narxlar indeksi (INI-i yoki PPI) va yalpi ichki mahsulot deflyatori eng keng tarqalganlari hisoblanadi. Bilvosita usullar esa turli iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlikdan foydalanib, kuzatilmagan yoki kutilayotgan inflyatsiya darajasini baholashga qaratilgan. Ushbu ikki yondashuv bir-birini to'ldiruvchi xarakter kasb etib, birgalikda ishlatilganda inflyatsiya jarayonining to'liqroq tasvirini beradi.

Iste'mol narxlar indeksi (INI) inflyatsiyani o'lchashning eng keng tarqalgan vositasi bo'lib, mamlakat aholisining tipik "iste'mol savati"ga kiruvchi tovar va xizmatlar narxlarining o'rtacha o'zgarishini aks ettiradi. Laspeyres formulasi asosida hisoblanadigan klassik INI bozor savatidagi tovarlar tarkibini bazis davr uchun belgilab, keyingi davrlar uchun xuddi shu tovarlar narxlarini kuzatib boradi. Paasche indeksi esa joriy davr iste'mol tarkibini asos sifatida qabul qiladi. Fisher indeksi ushbu ikki indeksning geometrik o'rtachasi bo'lib, nazariy jihatdan eng to'g'ri natijani beradi.

Bazaviy inflyatsiya (core inflation) ko'rsatkichi INIning muqobil o'lchovi sifatida ishlab chiqilgan bo'lib, energiya resurslari va oziq-ovqat mahsulotlari kabi narxlar keskin va siklik tebranishlarga moyil bo'lib o'zgaradigan tovar guruhlari istisno qilingandan keyingi inflyatsiya darajasini ifodalaydi. Pul-kredit siyosatini amalga oshirishda asosiy inflyatsiya ko'rsatkichi markaziy banklar uchun yanada ishonchli mo'ljal bo'lib xizmat qiladi, chunki u vaqtinchalik omillarning ta'siridan tozalangan, uzoq muddatli narx tendensiyalarini aks ettiradi.



Statistik vaqt qatorlari modellari orasida avtoregressiv integrallashgan o'rtacha harakatlar (ARIMA) modeli, uning mavsumiy varianti (SARIMA) va vektorli avtoregressiya (VAR) modeli alohida o'rin egallaydi. Box-Jenkins metodologiyasi asosida qurilgan ARIMA modeli inflyatsiyaning o'z tarixiy qiymatlaridan foydalanib prognozlash imkonini beradi. Ushbu usulning asosiy afzalligi shundaki, u minimal parametrlar soni bilan qisqa muddatli prognozlarda yuqori aniqlikka erishishi mumkin. Identifikatsiya bosqichida ACF (avtokorrelyatsiya funksiyasi) va PACF (qisman avtokorrelyatsiya funksiyasi) grafiklari yordamida model tartibi (p,d,q) tanlanadi; baholash bosqichida eng kichik kvadratlar yoki maksimal ehtimollik usuli qo'llaniladi; diagnostika bosqichida esa qoldiqlar tekshiriladi. ARIMA modelining muhim kamchiligi shundaki, u asosan chiziqli bog'liqliklarni aks ettiradi hamda pul taklifining o'zgarishi, tashqi savdo shoklari va boshqa tashqi omillar ta'sirini bevosita hisobga olmaydi.

Tarkibiy makroiqtisodiy modellar orasida yangi keynschilik maktabi nazariyalari doirasida ishlab chiqilgan Dinamik Stoxastik Umumiy Muvozanat (DSGE) modeli va Fillips egri chizig'iga asoslangan yondashuvlar alohida ahamiyat kasb etadi. DSGE modellari iqtisodiy agentlar — uy xo'jaliklari, firmalar va davlatning optimal xulq-atvorini tavsiflovchi tenglamalar tizimidan iborat bo'lib, ular mikroiktisodiy asosga ega, shu bois ushbu iqtisodiy nazariya bilan izchil bo'lgan prognozlarni taqdim eta oladi. DSGE modellarida narx qat'iyligini tavsiflashda Calvo modeli keng qo'llaniladi: har bir davrda firmalarning ma'lum ulushi narxlarini o'zgartira oladi, qolganlari esa avvalgi narxni saqlaydi.

TAHLIL NATIJALARI

Davlat qarzi va inflyatsiya o'rtasidagi munosabat iqtisodiy nazariyalarda uzoq vaqt davomida muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri bo'lib kelgan. Ushbu o'zgaruvchilar o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntirish uchun turli nazariy yondashuvlar ishlab chiqilganligini ta'kidlab o'tishimiz zarur. Ular orasida monetar yondashuv, fiskal ustunlik nazariyasi, fiskal narx darajasi nazariyasi hamda qarz barqarorligi kabi nazariyalar alohida o'rin tutadi. Mazkur nazariy yondashuvlar davlat qarzi va inflyatsiya o'rtasidagi bog'liqlikni turli mexanizmlar orqali izohlaydi.

Xalqaro makroiqtisodiy modellar bo'yicha 2025-yil yakunida YAIMga nisbatan davlat qarzi taxminan 35 foiz bo'lishi kutilmoqda. 2024-yilda O'zbekistonda yillik inflyatsiya darajasi taxminan 9,6–9,8 foiz oralig'ida shakllangan.

2025-yilning turli davrlarida davlat qarzi oshishda davom etdi: 2025-yil 1-oktabr holatiga qarz 43,97 mlrd dollarga yetdi va YAIMga nisbati taxminan 32,3 % bo'ldi. Bu ko'rsatkichlar yangi qarzlarni jalb etilishi va iqtisodiyotning oshib borayotgan moliyaviy ehtiyojlari bilan izohlanadi. 2025-yilda umumiy davlat qarzi hajmida yil boshiga nisbatan o'sish kuzatilib, yilning birinchi yarmida uning miqdori qariyb 43,4 mlrd dollarga yetdi. Bu ichki va tashqi manbalardan jalb qilingan qarz ko'lamining oshganini ifodalaydi.

2025-yilda inflyatsiya sezilarli darajada pasaydi: yil yakuni bo'yicha yil davomida o'rtacha narxlar o'sishi 7,3 foizni tashkil etdi, bu oldingi yilga nisbatan ancha past ko'rsatkichdir.

Ushbu ma'lumotlar O'zbekiston misolida davlat qarzining oshib borishi bilan inflyatsiya darajasi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri avtomatik bog'liqlik yo'qligini ko'rsatadi. Agar davlat qarzi ko'p miqdorda ichki pul emissiyasi orqali moliyalashtirilsa, u holda inflyatsion bosim oshishi mumkin, biroq mazkur davrda qarzning katta qismi tashqi manbalardan jalb qilingan va iqtisodiyot o'sishiga yo'naltirilgan. Natijada inflyatsiya darajasi barqarorlashib, 2025-yilda nisbatan pastroq darajada shakllandi.

Inflyatsiya darajasi esa mazkur davrda o'zgaruvchan xarakterga ega bo'ldi. 2018–2019-yillarda yuqori inflyatsiya kuzatilgan bo'lsa, 2020–2021-yillarda pul-kredit siyosati qat'iylashtirilishi natijasida pasayish kuzatildi. 2022-yilda tashqi inflyatsion bosimlar (import narxlarining o'sishi, global energiya bozori tebranishlari) sababli inflyatsiya yana oshdi, 2023-yilda esa barqarorlashuv kuzatildi.

Tahlil natijalari davlat qarzi va inflyatsiya o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri chiziqli bog'liqlik mavjud emasligini ko'rsatadi. Masalan, 2020–2021-yillarda qarz hajmi sezilarli oshgan bo'lsa-da, inflyatsiya pasaygan. Bu holat davlat qarzining to'liq monetizatsiya qilinmaganligi hamda pul-kredit siyosatining nisbatan mustaqil olib borilganligi bilan izohlanadi.

Shuningdek, byudjet taqchilligi va pul massasi o'sishi ham muhim omil bo'lib xizmat qilgan. Agar fiskal kengayish monetar ekspansiya bilan birga kechsa, inflyatsion bosim kuchayishi ehtimoli yuqori bo'ladi. Aksincha, qarz mablag'lari infratuzilma va ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga yo'naltirilganda, o'rta muddatda taklif hajmining oshishi inflyatsion bosimni yumshatishi mumkin.

O'zbekiston sharoitida davlat qarzining inflyatsiyaga ta'siri bilvosita xarakterga ega bo'lib, u asosan fiskal va monetar siyosat o'rtasidagi muvofiqlashtirish darajasiga bog'liq. Qarzni barqaror boshqarish, uning YAIMga nisbatan xavfsiz darajada saqlanishi hamda inflyatsion targetlash rejimining izchil davom ettirilishi makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Biroq aynan shu davrda inflyatsiya darajasi 11,1% dan 10% gacha pasaygan. Ushbu holat fiskal kengayish va inflyatsiya o'rtasida bevosita, avtomatik bog'liqlik mavjud emasligini anglatadi. Demak, byudjet taqchilligining



oshishi inflyatsiyani faqat qarz monetizatsiya qilingandagina kuchaytirishi mumkin. Agar taqchillik tashqi qarz yoki ichki obligatsiyalar orqali moliyalashtirilsa va pul emissiyasi bilan qo'llab-quvvatlanmasa, inflyatsion bosim nisbatan cheklangan bo'ladi.

Grafikda pul massasi (M2) o'sishi va inflyatsiya o'rtasida ancha yaqin dinamik moslik kuzatiladi. 2018-yilda M2 o'sishi 40% bo'lib, inflyatsiya 14,3% ni tashkil etgan. 2019–2021-yillarda M2 o'sishi pasaygan sari inflyatsiya ham pasaygan. 2022-yilda M2 o'sishining 22% gacha ko'tarilishi inflyatsiyaning 12,3% ga chiqishi bilan bir vaqtda kuzatilgan. 2023-yilda M2 15% gacha kamaygan va inflyatsiya 9,8% ga tushgan.

Ushbu natijalar monetar nazariya doirasida inflyatsiya bilan pul massasi o'zgarishlari o'rtasida muayyan bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Mazkur davrda inflyatsion jarayonlarning shakllanishida monetar omillarning ta'siri nisbatan sezilarli bo'lganini qayd etish mumkin.

Mazkur omil inflyatsiya sur'atlarining barqarorlashishiga ta'sir ko'rsatgan omillardan biri sifatida baholanishi mumkin. Mazkur holat tahlil qilingan davrda fiskal dominanta belgilarining yaqqol namoyon bo'lmaganini hamda pul-kredit siyosatining nisbatan mustaqil olib borilganini ko'rsatadi.

2022-yilda inflyatsiya 12,3% gacha oshgan bo'lib, bu davrda pul massasi o'sishi bilan bir qatorda tashqi omillar — global oziq-ovqat va energiya narxlarining o'sishi, import inflyatsiyasi ham muhim rol o'ynagan. Demak, inflyatsiya faqat ichki fiskal siyosat natijasi emas, balki ochiq iqtisodiyot sharoitida tashqi shoklarga ham sezgir jarayon hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqotda fiskal va monetar siyosatning inflyatsiya hamda davlat qarziga ta'sir mexanizmlari nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda ushbu ikki siyosat yo'nalishi bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning o'zaro muvofiqlashtirilgan holda amalga oshirilishi iqtisodiy rivojlanishning muhim shartlaridan biridir.

Fiskal siyosat davlat byudjeti xarajatlari, soliqlar va davlat qarzi orqali iqtisodiy faollikka ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiy pasayish davrida ekspansion fiskal siyosat ishlab chiqarish va bandlikni rag'batlantirishga xizmat qilsa-da, uning uzoq muddat davom etishi byudjet taqchilligi va davlat qarzining ortishiga olib kelishi mumkin. Davlat qarzi yukining yuqori darajaga yetishi qarzga xizmat ko'rsatish xarajatlarining oshishiga olib kelishi, investitsion faollikni cheklashi hamda inflyatsion bosimni kuchaytirishi ehtimolini oshiradi.

Monetar siyosat esa asosan pul massasi, foiz stavkalari va kredit resurslari hajmini tartibga solish orqali narxlar barqarorligini ta'minlashga qaratilgan. Markaziy bank tomonidan olib boriladigan oqilona pul-kredit siyosati inflyatsion kutilmalarni pasaytirish, milliy valyuta barqarorligini saqlash va iqtisodiyotda sog'lom moliyaviy muhitni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, nisbatan qat'iy monetar siyosat qisqa muddatda iqtisodiy o'sish sur'atlariga cheklovchi ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Davlat qarzi va inflyatsiya o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik murakkab makroiqtisodiy jarayon bo'lib, u fiskal va monetar siyosatning uyg'unligi bilan belgilanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, davlat qarzi o'z-o'zidan inflyatsiyani keltirib chiqarmaydi, biroq uning moliyalashtirish manbalari, byudjet taqchilligi darajasi hamda pul-kredit siyosati instrumentlari orqali narxlar barqarorligiga bilvosita ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston misolida ham so'nggi yillarda inflyatsion targetlash tizimiga bosqichma-bosqich o'tish, fiskal qoidalarini kuchaytirish hamda davlat qarzini boshqarish strategiyasini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, jahon iqtisodiyotidagi o'zgaruvchanlik, tashqi qarz dinamikasi va global inflyatsion jarayonlarni hisobga olgan holda, ushbu yo'nalishdagi siyosatning izchil va muvozanatli davom ettirilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, davlat qarzini boshqarishning asosiy maqsadi uning barqaror darajasini ta'minlash, qarz yukining makroiqtisodiy muvozanatga salbiy ta'sirini minimallashtirish hamda narxlar barqarorligini saqlashdan iboratdir. Shuning uchun ham davlat qarzi siyosati fiskal intizom, samarali qarz boshqaruvi va mustaqil pul-kredit siyosati bilan uyg'un holda amalga oshirilishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Keynes, J. M. (1936). The General Theory of Employment, Interest and Money. London: Macmillan and Co., Ltd.
2. Friedman, M. (1968). The Role of Monetary Policy. The American Economic Review, 58(1), 1–17.
3. Sargent, T. J., & Wallace, N. (1981). Some Unpleasant Monetarist Arithmetic. Federal Reserve Bank of Minneapolis Quarterly Review, 5(3), 1–17. DOI: 10.21034/qv.531.
4. Barro, R. J. (1974). Are Government Bonds Net Wealth? Journal of Political Economy, 82(6), 1095–1117. DOI: 10.1086/260266.
5. International Monetary Fund. (2023). Fiscal Monitor: On the Path to Policy Normalization. Washington, DC: International Monetary Fund.



6. World Bank. (2022). Uzbekistan Public Expenditure Review: Better Value for Money in Human Capital and Water Infrastructure. Washington, DC: World Bank.
7. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2023). Pul-kredit siyosati sharhi: 2023-yil IV chorak. Toshkent.
8. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2024). Pul-kredit siyosati sharhi: 2024-yil IV chorak. Toshkent.
9. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2025). Pul-kredit siyosati sharhi: 2025-yil IV chorak. Toshkent.
10. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. (2025). Fiskal strategiya: 2026–2028-yillar. Toshkent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 5 (3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>